

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10802171>

JADIDLAR FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLAR MASALALARI

Kimsanboyeva Zuhraxon Abdukarimovna

IIVning 1-son Toshkent akademik litseyi

tarix fani yetakchi o‘qituvchisi

kimsanboyevtoirjon@gmail.com

Nurislomov Kamron Botir o‘g‘li

IIVning 1-son Toshkent akademik litseyi

o‘quvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada ma ’rifatparvar ziyolilar orasida xotin-qizlarni faoliyati va ularning ta ’lim-tarbiyasiga bog ’liq qarashlari bayon etilgan bo ’lib, Chor Rossiyasining Turkistonda olib borgan ta ’lim sohasidagi siyosati natijasida mahalliy xalqning madaniyati, urf-odatlari va an’analari poymol erilishi. Jadid matbuotida e ’lon qilingan maqolalarda o ’z tasdig ’ini topgan. Jadidlarimizning boy tarixiy merosi, buyuk kelajak uchun boy imkoniyatlar manbai hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: jadid, ta ’lim, tarbiya, xotin-qizlar, maktab, Oyna, Sadoi Turkiston, Tarjimon, A.Avloniy, A.Shukuriy.

ABSTRACT

The article describes the activities of women and their education among enlightened intellectuals, and as a result of the education policy of Tsarist Russia in Turkestan, the culture, customs and traditions of the local people were destroyed.

Melting It was confirmed in the articles published in Jadid press. The rich historical heritage of our ancestors is a source of rich opportunities for a great future.

Key words: modernity, education, upbringing, women, school, Oyna, Sadoi Turkestan, Translator, A. Avloni, A. Shukuri.

KIRISH. Turkiston o'lkasining XX asr boshlariga kelib, yangi islohatlar qurshovida qolishi jadidchilik faoliyatining ham rivojlanishiga imkon yaratib berdi. Jadidlar madaniy va ma'rifiy faoliyatlarida yangi usul maktabalarini ochish, yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlar berish, shu bilan birga xotin-qizlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratib, dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlar ham erkaklar qatorida teng huquqli bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tganlar. Ayol va erkaklar o'rtasida farq bo'lmasligi, shu qatorda ta'lim olishda ham teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari kerakligini haqida fikrlar berilgan. «Butun insoniyat olamining tirikchiligi yolg'iz ayollar soyasidaginadir deb aytsak shoyad xato qilmagan bo'lamiz. Ayollar butun olam insoniyatining onasidir: payg'ambarlar, rasullar, podshohlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shu muhtaram validalarning bolalaridirlar. Ayollar izzatu muhtaramdirlar, chunki islom dini xotinlari eski zamonlarda huquqsiz va erlar qo'lida xor-u zor bo'lib turmaklaridin xalos etib, ularga keng huquqlar beribdi»[1;77], - deb yozilgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jadidlarning matbuoti bo'lmish «Sadoi Turkiston» gazetasida, shu o'rinda hikmatlardan quyidagilarni keltirish o'rinli deb o'layman: «Xotinlar ilmli bo'imoqlari lozim. Ilmli bo'Imagan kishi tarbiya usulidan albatta mahrum bo'ladi. Bolalar tarbiyasi xotinlarga maxsus bir vazifa bo'lgani uchun tarbiya qiluvchilarning bilim darajalari yuqori bo'lmog'ini taqozo etadi». Shuni ta'kidlash kerakki, Ismoilbek Gasprinskiy 1884-yil «Usuli jadid» maktabini oolib, maorif tizimini isloh etish borasidagi g'oyalarini «Tarjimon» gazetasida e'lon qilib, maorif tizimi oldida hal etish kerak bo'lib turgan vazifalardan biri – xotin-qizlar maorifiga ham alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlab o'tgan[2;31].

XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining, milliy ozodlik harakatlarida, yangi usul mакtablari paydo bo‘lishiga ham imkon yaratdi. 1909-yildab boshlab yetim bolalarni savodini chiqarishda “Jamiyati xayriya” tashkiloti tuzildi. A.Avloniy ma’rifatchilik ishlari maktabdorlik vazifasi bilan birga maktabda o‘quvchilarning tez savodini chiqarish uchun manba “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli 4 jiddan iborat sh’riy to‘plamlari darslik sifatida o‘qitila boshlandi. Turkistonda “Nashriyot” va “Maktab” shirkatlari tuzildi. “Taraqqiy”, “Shuxrat” (1907), “Osiyo” (1908), “Turon” (1917) chiqarilgan jaded gazetalarida o‘quvchilarni savodini chiqaruvchi maqolalalar ma’rifatparvarlar tomonidan chiqarib turilgan. Jadidlar yangi usul mакtablarini ochib, ularda o‘g‘il va qiz bolalarning birga o‘qishlarini tashkil qila boshlaydilar. Abdulla Avloniy aytganidek:

«O‘g‘il-qiz o‘qisa bo‘lur olim,
Johil odamlar bo‘ladur zolim.
Baxtu iqbol ilma bog‘liqdur,
Ilm o‘qutmoq ahsan a’molim» [3;135].

NATIJALAR

Turkistonda ochila boshlagan kutubxona, mакtablar A.Avloniyning xizmatlari katta. U gumanistik g‘oyalar bilan birga erkin tarbiyaga asoslangan holda, ilm-u ma’rifatni targ‘ib qilinishi, dunyo siyosatida bo‘ayotgan yangiliklar, jaholat boqog‘idan qutulish eng muhim vazifa sanalib, milliy ozodlikkka erishishning eng to‘g‘ri yo‘li ma’rifatli xalqni tarbiyalash deb qaralgan.

Shunday mакtablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda tashkil qilingan jaded mакtablaridan birida o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qita boshlaydilar. Qizlarni savodini chiqarishga uning xotini ko‘maklashganligi manbalarda keltirib o‘tilgan. Abdulqodir Shakuriyning bunday ishi mahalliy boydar, ruhoniylarning noroziligiga sabab bo‘lgan[1;77]. Shunday bo‘lsa-da, bunday mакtablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, Toshkentdaggi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usul mакtabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning mакtabida 15 ta qiz o‘qigan[1;80]. Ho‘qand shahrining G’alchasoy mahallasida

Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda dastlab «usuli jadid», keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Unda singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizlarni savodini chiqarishda o‘quvchilarga saboq bergan[4;46]. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o‘g‘il bolalar bilan yonma-yon o‘tirib, tahsil olgan. Ostroumov bergan ma’lumotga ko‘ra, «imtihon beriganlar savollarg‘a ko‘p yaxshi javoblar berib, imtihonga borguchilarni diqqatini jalg etib, mazkur shogirdlar haqig‘a ko‘p duolar qildilar va xususan, bir yosh qiz-shogirdga istehson qildilar».

MUHOKAMA Jadidlar oilalarda, teng va saodatli, muhabbatli va sadoqatli turmush masalasini o‘rtaga qo‘yadilar. Xolbuki, «huddi shu yillarda o‘lkaning eng e’tiborli jurnallardan biri - «Oyna» «xotin olami vujudga fidoyi o‘lmak uzra kelmish bir maxluqi latifdur» deb yozgan bo‘lsa eng obro‘li shoirlardan biri esa «Qaysi xotunkim, ochiq yuzdur, bal fohishadur» deyishgacha borgandi va bu hukmron nuqtai nazar edi», - deb yozadi. Jadidlar faoliyatining tadqiqotchisi Qosimov B. jadidlar shunday og‘ir sharoitdan xotin-qizlarni olib chiqish uchun intildilar. Ular uchun maktablar ochdilar, kutubxonalar tashkil etdilar. Taraqqiyatning qarashlarida jamiyat taraqqiyotini to‘xtatayotgan xotin-qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq salbiy illatlar: ma’rifat qoloqligi, qayg‘u-kulfat, urug‘-aymoqchilik kabi illatlardan qutulish uchun xotin-qizlar o‘z ayollik huquqini anglashi, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur.

XULOSA “Shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo‘la olmaydi” ushbu fikrlar tasdig‘i sifatida ma’rifatsiz jamiyatda o‘zboshimchalik, jabr-zulm,adolatsizlik, johillik, zo‘ravonlik hukmronlik qiladi. Jamiyatdagi bu tubanlik birinchi galda ayollar hayotida tezroq va to‘laroq o‘z aksini topadi.

Shu ma’noda biz yoshlar o‘tmishimizga hurmat, ma’naviy merosimizga e’tiqod ruhida tarbiyalanar ekanmiz, bu hurmat, bu e’tiqod aslo ko‘r-ko‘rona, yuzaki bo‘lmasligi, aksincha, teran bilimga aqliy yetuklikka, erkin fikrlash va ma’naviy poklikka asoslangan munosabatda bo‘lmog‘imiz lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Radjabova D.N. *Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari (XIX asrning oxiri - XX asr boshlari)*. Tarix fanlari nom ...dis. - T., 2003. - 77 b.
2. Sharipov R. *Turkiston jadidchilik harakati tarixidan*. - T.: O‘qituvchi, 2002. B. 31.
3. Avloniy A. *Oila munozarasi. Tanlangan asarlar*. T.2. - T.: Ma’naviyat. 1998. B. 135.
4. Tojiboyev R. *Ma’rifat fidoyisi*. // Sog‘lom avlod uchun. 1999. №4-5. B. 46.
5. Ҳаққулов Н. К. Сиддиқий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2020. – №. 10. – С. 296.
6. Меликова М. Н., Ҳакқулов Н. К. Новый подход к философскому наследию великих предков. – 2021.